



CANADA



CANADA

**O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISHIDA RUS TILIDAN O‘ZLASHGAN
 KASB- HUNAR ATAMALARINING ROLI**

Ermo‘minova Maftuna G’ofurovna

TerDPI 2-bosqich magistranti

Termiz ,O‘zbekiston

Anotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tili leksikasiga rus tilidan o‘zlashgan ba’zi kasb-hunar atamalari haqida ma’lumot keltiriladi. Kasb-hunar atamalarining qo’llanishi ma’lum nutqiy vaziyatni taqazo etadi. Rus tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan kasb-hunar atamalarining izohi sifatida ma’lum misollar keltirilib, uning leksik-semantik jihatidan ahamiyati ushbu misollar yordamida dalillanadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili leksikasi, atama, kasb-hunarga oid yondashuv, leksik – semantik jihat*

Kasb-hunar leksikasiga ruscha terminlarning kelib kirishi tarixi bizga ma’lum. O‘zbek hunarmandlari, XIX asrning 70 nchi yillardan e’tiboran, rus masterlari bilan bevosita aloqaga kirishadilar, asta-sekin rus ishlab chiqarish quollarini ishlata boshlaydilar, shuning natijasida ularning leksikasida ruscha so‘z-terminlar paydo bo‘la boshladi. Hunarmand a’zolari rus tilidan tayyor atamalar qabul qilish bilan birga, yangi quollar yoki ularning qismlarini atash uchun ilgaridan ishlatib kelgan atamalardan va umumxalq o‘zbek tillining lug‘atidagi so‘zlardan ham ishlatardilar.

Hozir biz rus tilidan o‘zlashgan kasb- hunar atamalarini ba’zilarini izohi bilan ko‘rib chiqamiz.

Advokat- sudda javobgarga huquqiy yordam beruvchi, javobgarni himoya qiluvchi yurist⁵⁰.

Svarka-ulamoq ,payvandlamoq⁵¹.

Sudya-sud organlarida sudga tushgan ishlarni ko‘rvuchi va shu ish bo‘yicha hukm chiqaruvchi lavozimli shaxs.⁵²

Stanok-metall,yog‘och,qattiq materiallarga ishlov berish ,ulardan biror narsa tayyorlash hamda gazlama to‘qish uchun xizmat qiluvchi mashina⁵³.

Probirka-laboratoriya ishlarida qo’llanadigan nir tomoni berk yupqa shisha naycha.⁵⁴

⁵⁰ O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati.Birinchi jild.-T-2006.

⁵¹ O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati.Uchinchi jild.-T-2006.

⁵² O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati.Uchinchi jild.-T-2006.

⁵³ O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati.Uchinchi jild.-T-2006.

⁵⁴ O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati.Uchinchi jild.-T-2006.



Provodnik-vagonni kuzatib boruvchi va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatuvchi temir yo‘l xodimi⁵⁵.

Prorab-qurilishda ishni tashkil qiluvchi va quruvchilarga bevosita rahbarlik qiluvchi texnik yoki injiner⁵⁶.

Popop-matolarga ilma igna bilan gul tikadigan mashina⁵⁷.

Banka-shisha, tunuka va plastmasadan yasalgan , slindrsimon idish⁵⁸.

Shunday qilib, kasb-hunar atamalarida o‘zbekcha, ruscha, ingлизча, arabcha, fors –tojikcha, lotincha atamalar mavjud.Til o‘z-o‘zidan rivojlanib boyib bormaydi. Boshqa tillarga ham murojaat qiladi.Tilimizga yaxshi singgigan va o‘rinli kirgan kasb-hunar atamalarini siqib chiqarmasligimiz zarur. O‘zlashma atamalarning aksariyati arabcha, fors-tojik atamalari o‘zbek tilining tarixida qo‘llanilgan bo‘lib, hozirgi vaqtda anchagina qismi iste’moldan chiqib ketgan.

O‘tgan asrda o‘zbek tiliga rus tilidan juda ko‘p so ‘zlar kiritildi. O‘zbek tiliga nisbatan kech qabul qilingan rus va boshqa Yevropa tillaridan o‘zlashgan kasb-hunar atamalari hozirgi o‘zbek tili terminologiyasida keng ishlatilib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati.Birinchi jild.-T-2006.
- 2.O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati.Uchinchi jild.-T-2006.
3. S.Ibrohimov.Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi.Toshkent-1959.64-110-betlar.

⁵⁵ O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati.Uchinchi jild.-T-2006.

⁵⁶ O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati.Uchinchi jild.-T-2006.

⁵⁷ O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati.Uchinchi jild.-T-2006.

⁵⁸ O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati.Birinchi jild.-T-2006.